

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MAMATMURODOV SHAROFJON XUDOYAROVICH

**MEHNAT HUQUQI FANINI INNOVATSION TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**
**(Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ishlab
chiqarish turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical science**

Mamatmurodov Sharofjon Xudoyarovich

Mehnat huquqi fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi misolida) 3

Маматмуродов Шарофжон Худоярович

Совершенствование методики преподавания науки трудового права на основе инновационных образовательных технологий (на примере образовательного направления конструирование и технология изделий легкой промышленности (по видам производства)..... 25

Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich

Improving the methodology of teaching the science of labor law based on innovative educational technologies (using the example of the educational direction of design and technology of light industry products (by type of production)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MAMATMURODOV SHAROFJON XUDOYAROVICH

**MEHNAT HUQUQI FANINI INNOVATSION TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ishlab
chiqarish turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4504 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashov Maxamatrasul
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Ximmataliyev Do'stinazar Omonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Murodov Toxir Baxramovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 26-mart soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100100, Toshkent shahri, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№224 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh.Shohjaxon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11-mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 11-martdagi 224 raqamli reyesti bayonnomasi).



X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

J.G.Xalmuratova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, p.f.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida murakkab globallashuv sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar kelajakdagi intellektual imkoniyatlarni belgilab beradigan va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lim tizimidagi intellektual salohiyatning o'sishi, sifat jihatidan rivojlanishi nafaqat ta'lim samaradorligi oshishi, shu sohadagi tizimning takomillashuvi, balki mazkur ijtimoiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadigan mehnat qilish huquqi, mustaqil ishlash hissi va boshqa sohalarini shakllanishi hamda rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini yanada takomillashtirish asosiy omil sifatida ta'lim tizimini jumladan mustaqil ta'limni isloh qilish, amaliyotda ta'lim muassasalarining innovatsion jarayonlarga integratsiyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygani va sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar turli huquqiy, kasbiy va ijtimoiy bilimlar, qadriyatlar, g'oyalarning shakllanish jarayonini jadallashtirgani munosabati bilan shaxsning ulardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy mustaqil ta'limni tashkil etish, uning rivojlanish tendensiyalaridan biri innovatsion faoliyatga o'tish, talabalar ehtiyojlarini yetarli darajada qondirish va jamiyatda ta'lim tizimini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirish, o'qitish metodikasining asosiy muammosi sifatida fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etish tartibini belgilovchi tizimni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yoshlarning tafakkuri va aqliy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Dunyo maydonida va o'z azm-u qarorida doim turmoq, maqsadga erishmoq uchun muttasil oldinga intilish, hayot va tafakkur tarzini isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish lozim"¹. Shuningdek, "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"². Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida, jumladan, yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ta'lim jarayonidagi faolligini yuksaltirish, kasbiy faoliyat uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, muammolar ustida ishlashda mustaqil va ijodiy yondashuvini ta'minlovchi innovatsion tafakkurni rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish kerakligi uzluksiz ta'lim tizimi oldiga dolzarb vazifa sifatida qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 8-oktabrdagi

¹Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 5-b.

²Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – B.19-20.

PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 23-yanvardagi PQ-15-son “Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyat sohasiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan pedagogik ta’limda klaster tizimi bilan bog‘liq innovatsion qarashlar Sh.Mardonov, U.Xodjamqulov, G‘.Muhamedov, Sh.Botirovaning ishlarida o‘z aksini topgan. O‘qitishda aralash ta’limni tatbiq etish masalalari J.Djumanov, B.Prenov, S.Xudayberdiyev, U.Xudanov, B.Xolmatova, G.Yusupova, Sh.Yuldosheva va boshqalar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan. A.A.Abduqodirov, F.A.Astanova, F.A.Abduqodirova nazariya, amaliyot va tajribada “Case-study” usulini qo‘llash metodikasi, A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi, pedagogik texnologiyaga oid atamalarning izohli lug‘ati, R.Ishmuhamedov – ta’limda innovatsiya va innovatsion texnologiyalar, M.Ochilov, O‘.K.Tolipov, M.Usmonboyeva, J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov va boshqalar dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari, J.G.Xolmuratova oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar tatbiqiga asoslangan dars tahlili va uning metodikasini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, N.B.Asilbekov ma’naviy-kasbiy tarbiyalash modeli va metodikasi, o‘zini-o‘zi ma’naviy-kasbiy tarbiyalash dinamikasi hamda talaba shaxsini o‘zini-o‘zi ma’naviy-kasbiy tarbiyalashining prinsiplari, mazmuni va metodikasini tadqiq qilgan.

MDH mamlakatlarida T.P.Afanasyeva, N.V.Nemova, L.N.Belotelova, V.A.Novitskaya ta’lim sohasining innovatsion rivojlanish tarixi va nazariy asoslari, L.G.Tarita qo‘shimcha ta’limni rivojlantirishning pedagogik masalalari, T.N.Trunseva ta’lim jarayonini innovatsion rivojlantirish, V.M.Stepanov innovatsiyalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi muammolari, G.V.Lyamina innovatsiyalarni baholash, transformatsiyalar samaradorligiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan. K.P.Zaxarov, V.K.Dyachenko, A.I.Goncharuk, V.L.Zarina, V.P.Bespalko, V.S.Kukushina, M.V.Klarin, V.P.Pugayev, G.K.Selevko, L.V.Golish, Ye.I.Yermolayeva, S.S.Muxina, A.A.Solovyova, M.YU.Oleshkov, F.I.Peregudov,

A.A.Yarulov, G.P.Shedrovitskaya tomonidan aralash ta'lim turlari, o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda jamoaviy o'qitish va ta'lim berishda axborot texnologiyalariga aloqador muammolarni innovatsion faoliyat orqali hal qilish, dialektik o'qitish usullari, ilmiy izlanishlarda o'qitishning individual yo'nalishli usuli, loyihali o'z-o'zini refleksiya muammolari turli jihatlardan o'rganilgan.

Tomas Jorj, Surjit Sing kabi xorijlik olimlar asarlarida ta'lim jarayonida inson resursini rivojlantirish omillari va pedagogik texnologiyalarni zamonaviy ta'limda nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarda qo'llash usullari bo'yicha didaktik va metodik tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotga doir ishlar va adabiyotlar tahlili "Mehnat huquqi" fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid zamonaviy texnologiyalar va talaba-yoshlarni o'z mehnat faoliyatida huquqiy munosabatlarni mukammal bilish, kasbiy-huquqiy kreativlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va metodologik holda to'liq tadqiq etilmaganidan dalolat beradi. Aynan shu holat ushbu mavzuni ilmiy jihatdan asoslash va yetarli darajada tadqiq etilmagan mehnat huquqi yo'nalishida ilmiy izlanishlar zarurligini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti tadqiqot ishlari rejasining I3-2020082952 "Ipak va paxta xom-ashyosi aralashmasidan ko'ylakbop va kostyumbop mato ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Mehnat huquqi" fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning yengil sanoat sohasi va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat huquqiga oid munosabatlarning tashkil etilishiga oid bilim va malakalarini tahlil qilish;

"Mehnat huquqi" fanini o'qitishda foydalaniladigan usullar tahlili va ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash hamda ta'lim tizimiga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga oid tajribalar va ustuvor an'analarni aniqlash;

"Mehnat huquqi" fanini o'qitish mazmunini takomillashtirishga oid metodikalarni ishlab chiqish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib "Mehnat huquqi" fanini o'qitish mazmuni, shakl, usul hamda vositalarini takomillashtirish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish,
mehnat huquqiga oid kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish modelini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta'lim yo'nalishi talabalariga "Mehnat huquqi" fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni

belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti, Jizzax politexnika instituti va Namangan to'qimachilik sanoati institutidan 600 nafar respondent – talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talaba yoshlarga “Mehnat huquqi” fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod, vositalari va modeli tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat, test); pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik va statistik tahlil etish, diagnostik (so'rovlar, suhbat, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Mehnat huquqi” fani mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi talabaning bilimni kompleks rivojlanishini ta'minlovchi kompetensiya va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan masofaviy, individual va hamkorlik kabi innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

mustaqil ta'limni bajarishda sarflanadigan jismoniy mehnat hajmini me'yorlashtirish elektron va masofaviy ta'lim vositalaridan keng foydalanish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini raqamlashtirish orqali samarali ekanligi asoslangan;

mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy hamda dual ta'limga asoslangan oliy ta'lim muassasasi va ishlab chiqarishda tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha talaba bevosita o'zi yoki o'qituvchi rahbarligida bajaradigan mustaqil ishiga sarflaydigan vaqt resursini meyorlash va joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan;

axborot va normativ hujjatlar bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, muammolarga yechim topish, vaqtni boshqarish, o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mehnat huquqi fanini o'qitish va amaliy faoliyatga tayyorlashning metodik modeli asoslash va joriy etish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning yengil sanoat sohasi va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat huquqiga oid munosabatlarning tashkil etilishiga oid bilim va malakalari darajasi aniqlashtirilgan;

“Mehnat huquqi” fanini o'qitishda foydalaniladigan usullar tahlili va ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy asoslangan;

ta'lim tizimiga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga oid tajribalar va ustuvor an'analar aniqlashtirilib, “Mehnat huquqi” fanini o'qitish mazmunini takomillashtirishga oid metodikalar ishlab chiqilgan, shuningdek, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning tahlili va mehnat huquqiga oid kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektivligi ularning samaradorligi Oliy ta'lim muassasalari yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta'lim yo'nalishlarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida o'z nazariy va

amaliy tasdiq'ini topgani, tadqiqot maqsadi, vazifalariga mos metodlar qo'llangani, ishlab chiqilgan tavsiyalar vositasida «Mehnat huquqi» fanidan dars jarayonlarida qo'llanadigan asosiy innovatsion texnologiyalar sifati va samaradorligi oshgani, tajriba-sinov ishlari reprezentativligi, matematik-statistik tahlil tadqiqot samaradorligini tasdiqlagani, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK tavsiya etgan jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, taqrizlar, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati integrativ yondashuv asosida «Mehnat huquqi» fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, xalqaro ilg'or tajribalar asosida dars jarayonlarida qo'llash zarur bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari takomillashtirilgani, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgani va amaliyotga tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati texnik oliy ta'lim muassasalarining yengil sanoat texnologiyasi yo'nalishida «Mehnat huquqi» fanining o'quv dasturlari mazmuni tadqiqot natijalari asosida takomillashtirilgani, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun «Mehnat huquqi» fanidan metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Mehnat huquqi» fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

«Mehnat huquqi» fani mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi talabaniing bilimni kompleks rivojlanishini ta'minlovchi kompetensiya va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan masofaviy, individual va hamkorlik kabi innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirilganligiga oid tavsiyalar o'quv jarayoniga joriy etilgan (Namangan to'qimachilik sanoati institutining 2024-yil 1 iyuldagi hamda Jizzax politexnika institutining 2024 yil 20 iyundagi dalolatnomalari). Natijada mehnat huquqi fanining o'quv dasturiga mehnat munosabatlariga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi normalar kiritilishi ta'minlangan;

mustaqil ta'limni bajarishda sarflanadigan jismoniy mehnat hajmini me'yorlashtirish elektron va masofaviy ta'lim vositalaridan keng foydalanish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini raqamlashtirish orqali samarali ekanligi asoslanganligi hamda mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy hamda dual ta'limga asoslangan oliy ta'lim muassasasi va ishlab chiqarishda tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha talaba bevosita o'zi yoki o'qituvchi rahbarligida bajaradigan mustaqil ishiga sarflaydigan vaqt resursini meyorlash va joriy etish mexanizmi ishlab chiqilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 29 apreldagi 136 son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartib»ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 8 iyuldagi 10/10-1922-son dalolatnomasi). Natijada, fanlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lim topshiriqlari, mavzu va vazifalarini shakllantirishda talabaniing

vaqt meyoriga amal qilish tartibi barcha oliy ta'lim muassasalariga joriy etilgan;

axborot va normativ hujjatlar bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, muammolarga yechim topish, vaqtni boshqarish, o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mehnat huquqi fanini o'qitish va amaliy faoliyatga tayyorlashning metodik modeli asoslash va joriy etish orqali takomillashtirilganligiga oid tavsiyalar o'quv jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar agentligining 2024 yil 3 iyuldagi 3-11-21-3468-son dalolatnomasi). Natijada, O'zbekiston yoshlarining o'z kasbini egallashda mehnat qonunchiligini bilish, kasbiy malakalarni egallashda "huquqiy bilim", "munosabat", "huquqiy madaniyat"ga asoslangan qoidani kiritish orqali kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish ishlarini samarali tashkil qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 2 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning hajmi 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mehnat huquqi**" fanini o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy-metodologik masalalari" deb nomlangan birinchi bobida ta'lim yo'nalishida o'qitish texnologiyasini takomillashtirish masalalari muhokama etildi.

Ta'kidlanishicha, innovatsion rivojlanish ta'limning innovatsion modellarini joriy qiluvchi va ishlab chiquvchi o'qituvchilarning innovatsion amaliyoti muammolarini hal qilish yo'llarini izlash bilan doimo bog'liqdir. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat, ayniqsa, «Mehnat huquqi» fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishni takomillashtirishning nazariy-metodologik masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Ushbu bobda "Mehnat huquqi" fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish metodikasi muhandislik sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rni, ta'limning samarali bo'lishi uchun mehnat qonunchiligining asosiy jihatlariga, jumladan, asosiy qoidalarga, joriy o'zgarishlarga va amaliyotga e'tibor qaratish lozimligi, o'qitish mazmunini takomillashtirishning asosiy yondashuvlaridan biri

qonunchilikdagi soʻnggi oʻzgarishlarni hisobga olgan holda oʻquv materiallari va adabiyotlarni yangilash zarurligi asoslab berildi. Mehnat huquqi fanini oʻqitishda foydalaniladigan usullar va ularni innovatsion taʼlim texnologiyalari asosida rivojlantirish imkoniyatlari, taʼlim tizimiga innovatsion taʼlim texnologiyalarini joriy etishga oid tajribalar va ustuvor anʼanalar ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Taʼlimda ikki shaxsning hamkorligi, oʻzaro muloqoti, bir-biriga koʻrsatadigan taʼsiri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi, buning uchun birinchi navbatda, oʻqituvchi taʼlim tarbiya jarayoni oldiga qoʻyilgan talablar, taʼlimni tashkil etish va boshqarish prinsiplari hamda yoʻllari, talabani aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni oʻqishga oʻrgatishga yoʻnaltirish, talaba shaxsiy faoliyatini toʻgʻri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, talaba faoliyatini aniq va toʻgʻri baholash metodlari bilan qurollangan boʻlishi lozim. Ushbu bobda yengil sanoat sohasi va ishlab chiqarish korxonalarida Mehnat huquqiga oid munosabatlarni tashkil etish, taʼlim tizimiga innovatsion taʼlim texnologiyalarini joriy etishga oid tajribalar va ustuvor anʼanalar ilmiy jihatdan asoslab berildi va mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilindi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev aytib oʻtganlaridek: “Aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi oʻzgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta”³. Har bir soha mutaxassisi oʻz oʻrniga ega boʻlishi zarur. Yengil sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat munosabatlarini tashkil etish korxonalarining samarali ishlashini taʼminlash, mutaxassislar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yurtimizda inson manfaatlarini roʻyobga chiqarish oliy qadriyat darajasiga aylangani, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, fuqarolarning mehnat huquqlarini toʻliq taʼminlashga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratib kelinayotgani buning tasdigʻidir. Bu yoʻlda zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilib, ular zamon talablari asosida takomillashtirilmogda, sohada fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshib bormogda.

“Mehnat kodeksi”⁴, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida”⁵, “Oʻzbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari toʻgʻrisida”⁶, “Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida”⁷ qonunlar hamda ikki yuzdan ortiq qonun va boshqa nomativ-huquqiy hujjatlar bu yoʻlda mustahkam huquqiy asos boʻlmoqda.

³ Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2022. – 219-b.

⁴ <https://lex.uz/docs/6257288>

⁵ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. Kasaba uyushmalari, huquqbuzarliklari va faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida. 2020-yil 8-iyul. <https://lex.uz/acts/18156>.

⁶ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. Oʻzbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari toʻgʻrisid”. 1991-yil 15-fevral. 223-XII son. <https://lex.uz/acts/111825>.

⁷ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida”. <https://www.lex.uz/acts/11360>. 2021-yil 21-aprel. OʻRQ-683-son “Ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”. <https://lex.uz/docs/5388561?ONDATE=11.02.2024&ONDATE2=01.12.2023&action=com.pare>.

Tadqiqotda xorijiy davlatlarning mehnat huquqi ham ilmiy jihatdan o'rganilib, O'zbekiston uchun unumli mehnatni tashkil etish ilmiy jihatdan asoslab berildi. Germaniyada yengil sanoat va ishlab chiqarishda mehnat qonunchiligi ishchilar uchun adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Korxonalarda ushbu huquqning tashkil etilishi tartibni saqlash, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega.


Germaniyada mehnat qonunchiligi mehnat munosabatlarini qat'iy tartibga solib, ish beruvchining ham, xodimlarning ham huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Ishchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi va korxonalarda mehnat sharoitlarini tartibga soluvchi kasaba uyushmalari va jamoa shartnomalariga muhim o'rin beriladi. Yengil sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qonunchiligiga rioya qilish qulay mehnat muhitini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, u malakali xodimlarni jalb qilish va ushlab turishga yordam beradi, bu korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun muhim omil hisoblanadi.

AQSHda yengil sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qonunchiligini tashkil etish ishchilar uchun adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Bu ish joyida ishchilarning huquqlarini himoya qilish, ish vaqtini tartibga solish, ishchilarga ish haqini to'lash va mehnat xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashni o'z ichiga oladi. 2011-yilda qabul qilingan Kaliforniya qonunlarida gender tenglik mustahkamlangan bo'lib, kamsitishlar taqiqlanadi. Amerika mehnat qonunchiligining manbasi – xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar to'plami. Ushbu huquqning asosi mehnat munosabatlari taraflarining huquq va majburiyatlarini belgilaydigan Federal Mehnat qonunidir.

Shvetsiyada yengil sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qonunchiligini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shvetsiya o'zining ilg'or ijtimoiy siyosati va xodimlarga bo'lgan e'tibori bilan mashhur. Mamlakatda ishchilarning huquqlarini himoya qiluvchi va mehnat munosabatlari uchun minimal standartlarni belgilovchi qonunchilik mavjud. Shvetsiya mehnat qonunlari, shuningdek, jinsi asosida kamsitishni taqiqlash orqali erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikni hurmat qiladi. Bu barcha ishchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratadi va ularga adolatli munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. 2023-yil oxirida Shvetsiyada mehnat bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish bo'yicha bir nechta mintaqaviy markazlar ochildi. Shvetsiya korxonalarida mehnat qonunchiligiga umumiy e'tibor ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida ishonchni mustahkamlashga, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va biznesning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Singapurda yengil sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qonunchiligini tashkil etish mamlakatda ustuvor ahamiyatga ega. Singapurdagi mehnat qonunchiligi tizimi xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni qat'iy tartibga soladi hamda mehnat munosabatlarini adolatli va samarali tartibga solishni ta'minlaydi. Singapur Mehnat kodeksi, shuningdek, Bandlik qonuni sifatida ham tanilgan, Singapurda mehnat munosabatlari va ishchilar huquqlarini tartibga soluvchi qonunchilikdir.

Singapurdagi yengil sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qonunchiligini tashkil etish adolatli va samarali mehnat munosabatlari va ishchilarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradigan qat'iy qoidalar va qonunlarga asoslanadi. Singapurning mehnat qonuni progressiv va shaffof bo'lib, barqaror va samarali mehnat munosabatlariga yordam beradi. Shuni yodda tutish kerakki, qonunlar va qoidalarga qat'iy rioya qilish muvaffaqiyatli mehnat bozori va barcha ishtirokchilar uchun adolatlilik asosidir.



1-rasm. O'qitish usullarining tasnifi

Zamonaviy fanda pedagogik innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va tarqatish muammolari bilan shug'ullangan K.Angelovskiy, VG.V.Lyamina, T.I.Lazdina va boshqalar jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari bilan o'zaro aloqada ijtimoiy institut sifatida ta'lim muammolari va o'qituvchining innovatsion faoliyatida motivatsion texnologiyalarni o'rganishning turli tomonlarini aniqladi. I.P.Kuzmin, I.P.Smironov, N.N.Sabinina va boshqalar umuman ta'lim standartlari va mazmunini ishlab chiqish bilan bog'liq holda innovatsion masalalar hamda innovatsion faoliyatda pedagog-mutaxassislarining ilmiy-amaliy metodik tavsiyalariga oid tadqiqotlar olib borgan.

1-bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yengil sanoat sohasi va ishlab chiqarish korxonalarida Mehnat huquqiga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Mehnat Kodeksi asosida tashkil etiladi. Xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida O'zbekistonda gender tenglik yo'lga qo'yilgani, fuqarolarni har tomonlama mehnat faoliyatiga haq to'lash qonun

bilan belgilab qo'yilganini guvohi bo'ldik.

2. "Mehnat huquqi" fanini o'qitishda foydalaniladigan usullar tahlili va ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish imkoniyatlari Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida yaratilgan.

3. Ta'lim tizimiga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga oid tajribalar va ustuvor an'analar xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda talabalarni ijodiy yondashuvga o'rgatish, buning uchun o'z ustiga ishlashni yo'lga qo'yishdan iborat. Jumladan, mustaqil ta'limni bajarishda referat yoki slayd tayyorlash emas, O'zbekistonning yengil sanoat sohasidagi tarmoqlarini rivojlantirishga oid loyihalarni ishlab chiqish, buning uchun talabalarni ijodiy ishlashga o'rgatish zarur.

Ikkinchi bob **"Mehnat huquqi" fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish** deb atalib, ushbu bobda mehnat huquqi" fanini o'qitish mazmunini takomillashtirishga oid metodikalar, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib "Mehnat huquqi" fanini o'qitish mazmuni, shakl, usul hamda vositalarini takomillashtirish, "Mehnat huquqi" fanini yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi huquqi sohasi mutaxassislari ishtirokida muntazam seminarlar, mahorat darslari va davra suhbatlarini o'tkazish zarurligi, bu talabalarga qonun hujjatlarini amalda qo'llash bo'yicha qimmatli tajriba va tushunchaga ega bo'lish imkonini berishning mohiyati ochib berildi.

Bugungi kunda "Mehnat huquqi" fanini o'qitish mazmunini takomillashtirishga oid pedagogik usullar, texnologiyalar (modellar) qo'llash mumkin. Ayrimlari bilan tanishamiz:

1. Axborot va rivojlanish texnologiyasi. Maqsadli tayyorgarlik, bilimdon mutaxassis.

2. Insonparvarlik pedagogikasi – shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

3. Faol konstruktiv yondashuv, tanqidiy va ijodiy fikrlash.

O'qituvchi tomonidan ma'ruza, seminar, hikoya, tushuntirish va suhbat olib borish mumkin. Hikoya davomida mavzuga oid filmlar va videoroliklardan foydalanish tavsiya qilinadi. Dasturlashtirilgan ta'lim orqali adabiyotlar bilan tanishish, o'quv dasturini o'zlashtirib olish tavsiya qilinadi. Bilimlarni mustaqil ravishda kengaytirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, texnik va yordamchi vositalarni qo'llash lozim.

Konseptual ishlanmalar darajasida Mehnat huquqini zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish mavzusini xorijiy olimlardan S.D.Reznik, V.M.Filippov, A.I.Chijevskiy, T.S.Demchenko, B.E.Dadashev, P.A.Kiselev, T.A.Martinov ilmiy tadqiqotlari nazariy va uslubiy xarakterga ega bo'lib, ularda mehnatning ta'rifi, iqtisodiy mazmuni va tashkiliy asoslarini o'z ichiga oladi, uni boshqarish tamoyillari, mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ijtimoiy va mehnat munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

V.N.Paraxina, T.M.Ferenko, E.Yu.Shatskaya, D.N.RPlatigin, N.M.Sladkovaning tadqiqotlari mehnatni boshqarish jarayonlarining nazariy tahlili, oliy o'quv yurti faoliyati va uning boshqaruvi aspektlariga bag'ishlangan.

Oliy ta'lim faoliyatida yangi tashkiliy texnologiyalar Maykl L.Ray, Alan Rinzl,

S.V.Yankevich, KPI bo'yicha ishlash mexanizmlari E.V.Myalkinaa, V.A.Jitkova⁸ ilmiy tadqiqotlarida asoslab berilgan. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar asosida sanoat korxonalarini xodimlari mehnatini boshqarishni takomillashtirish muammosi haligacha dissertatsiya tadqiqoti mavzusini oldindan belgilab beradigan keng qamrovli tadqiqot mavzusi bo'lmagan.

«Mehnat huquqi» fanini zamonaviy o'qitish talabalarning o'quv materialini samarali o'zlashtirishi uchun innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. O'qitish usullaridan biri interfaol ta'lim bo'lib, bu talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, o'qituvchi va boshqa talabalar bilan savol-javob tashkil etish, mavzuni muhokama qilish imkonini beradi.

Biz tadqiqot jarayonida talabalarning mustaqil ish mavzulari va topshiriqlarini bajarishga sarflaydigan vaqtni me'yorlashtirishda quyidagi shakllarda joriy etishni nazarda tutdik:

1-jadval

Talabaniing bevosita o'zi tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari

Ish turi	Ish turining mazmuni	Vaqt hajmi
Darsga tayyorlanish	Ma'ruza matnlari, vodkastlar, video materiallar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o'rganish	1 soat
Axborot izlash	O'z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o'rganish	1 soat
FAQ (ko'p so'raladigan savollar)	O'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash	2 soat
Forum	Fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish	1 soat
Test echish	O'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash	1 soat
Nazorat ishiga tayyorlanish	Fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish	6 soat

2-jadval

An'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaniing mustaqil ishi

Ish turi	Ish turining mazmuni	Vaqt hajmi
Masala echish	Amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan masalalarni echish va uni yozma tarzda taqdim qilish	2 soat

⁸ Мялиникова Е.В. Система комплексной оценки административно-управленческого персонала в ВУЗе: практика и особенности / Е.В.Мялиникова, В.А.Житкова // Вестник Мининского университета. – 2018. – Т.6. — № 1(22). – С.2-7.

Referat	Muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi	15 soatga cha
Kollokvium	O'quv modulining nazariy qismining o'zlashtirilishini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan suhbatga tayyorgarlik ko'rish	6-soat
Esse	Dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish	10 soat
Taqdimot	Berilgan mavzu bo'yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish	10 soat
Keys-stadi	Ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo'yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo'yicha echim izlash	6 soat
Ish o'yinlari	Kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko'nikmalar orttirish	12 soat
Glossariy	Berilgan mavzu bo'yicha atamalarni qisqa izohlash	6-8 soat
Guruh loyihasi	3-5 talabaning hamkorlikda loyiha ishini bajarishi	6-8 soat
Hisob-chizma ishlari	Odatda texnik fanlar (muhandislik grafikasi, elektrotexnika, axborot texnologiyalari va h.k.) bo'yicha amalga oshiriladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan grafik va hisob ishlari	20 soat
Fan to'garaklarida ishtirok etish	Talabaning fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashi	60 soat
Tanlovlarda ishtirok etish	Talabaning o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi ("Yosh ixtirochi", talabalar startap loyihalari va h.k.)	60 soatga cha
Fan olimpiadalarida qatnashish	Fanlar bo'yicha OTMLar o'rtasida o'tkaziladigan olimpiadalarda ishtirok etish (kimyo, umumiy kimyoviy texnologiya, fizika, axborot texnologiyalari va h.k.)	60 soatga cha
Ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish	Fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish	30 soatga cha
O'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish	Darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va boshqa o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish	30 soat


Elektron shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi

Ish turi	Ish turining mazmuni	Vaqt hajmi
Link	Internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash	4 soat-gacha
CHart	Jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish	4 soat-gacha
Q/A	Masofaviy ta'lim platformasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish	4 soat-gacha
Review	Taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish	4 soat-gacha
SWOT	Talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi	4 soat-gacha
Interview	Muammoni tadqiq qilish bo'yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta'lim platformasiga yuklash	4 soat-gacha
Google Apps	Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish	4 soat-gacha
Dayjest	Berilgan mavzu bo'yicha internet-havolalar to'plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash	4 soat-gacha
Report	Talabalar laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha hisobotlarini masofaviy ta'lim platformasiga kiritishi va hokazo	4 soat-gacha

Talabalarining mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari auditoriyada o'tilgan nazariy va amaliy mashg'ulot mavzulari bilan bevosita bog'liq bo'lishi shart. Fanga taalluqli lekin auditoriya mashg'ulotlarida o'tilmagan yoki umumiy tushunchalar berilmagan mavzulardan mustaqil ish topshiriqlarini shakllantirish mumkin emas.

